



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

No. 2

EKOLOGIK TARBIYA TUSHUNCHASINING EVOLYUTSION RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALQINLARI

Maxmudova Ruksora Navro‘z qizi,

Buxoro Davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

makhmudovaruxi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik tarbiya tushunchasining tarixiy shakllanish bosqichlari, uning nazariy asoslari hamda evolyutsion rivojlanish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogikada ekologik tarbiyaga oid yangicha yondashuvlar, barqaror rivojlanish tamoyillari va ekotsentrik yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Muallif ekologik ongni shakllantirishda fanlararo integratsiyaning o‘rni hamda ushbu sohaning zamonaviy pedagogika fanidagi strategik ahamiyatini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: ekologik tarbiya, evolyutsiya, pedagogik yondashuv, ekologik ong, ekotsentrizm, barqaror rivojlanish, tabiat va jamiyat, ekologik madaniyat.

ЭВОЛЮЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ЕГО ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Махмудова Рухсора Навроў қизи,

Докторант (PhD) Бухарского государственного педагогического института

makhmudovaruxi@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируются исторические этапы формирования понятия «экологическое воспитание», его теоретические основы и процессы эволюционного развития. Также рассматриваются современные педагогические подходы к экологическому воспитанию, принципы устойчивого развития и значение экоцентрического подхода. Автор обосновывает роль междисциплинарной интеграции в формировании экологического сознания и стратегическое значение данной области в современной педагогической науке.

Ключевые слова: экологическое воспитание, эволюция, педагогический подход, экологическое сознание, экоцентризм, устойчивое развитие, природа и общество, экологическая культура.

THE EVOLUTION OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AND ITS CONTEMPORARY PEDAGOGICAL APPROACHES

Maxmudova Ruksora Navro‘z qizi,

Doctoral Student (PhD), Bukhara State Pedagogical Institute

makhmudovaruxi@gmail.com

Abstract: This article analyzes the historical stages in the formation of the concept of “environmental education,” its theoretical foundations, and the processes of its evolutionary development. It also highlights modern pedagogical approaches to environmental education, the principles of sustainable development, and the significance of the ecocentric approach. The author substantiates the role of interdisciplinary integration in the formation of environmental consciousness and the strategic importance of this field in contemporary pedagogical science.

Keywords: environmental education, evolution, pedagogical approach, environmental consciousness, ecocentrism, sustainable development, nature and society, environmental culture.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XXI asrga kelib insoniyat va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning keskin buzilishi global ekologik inqirozlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillikning qisqarishi hamda tabiiy resurslarning tanqislanishi nafaqat texnologik va iqtisodiy yechimlarni, balki ekologik ong va tafakkurni shakllantirishni ham talab etmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning ekologik madaniyatini rivojlantirish, tabiatga nisbatan iste’molchilik munosabatidan voz kechish hamda barqaror turmush tarzini qaror toptirishda pedagogik tizim muhim o‘rin egallaydi. Shu bois ekologik tarbiya bugungi kunda yordamchi yo‘nalish emas, balki insoniyat istiqboli va global xavfsizlikni belgilovchi strategik ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi [2; 9]. Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat qadimdan mavjud bo‘lib, inson hayoti tabiat bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq tabiat hodisalarini ilohiylashtirish tabiatni asrashning dastlabki g‘ayriixtiyoriy shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘lgan.

Muammoning qo'yilishi. Ekologik tarbiya tushunchasi o'zining shakllanish jarayonida uzoq evolyutsion taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Dastlab tabiatni o'rganish va undan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan utilitar yondashuv sifatida talqin qilingan mazkur tushuncha bugungi kunda ekologik etika va ekologik dunyoqarash kabi murakkab falsafiy-pedagogik kategoriyalar darajasiga ko'tarildi. Biroq pedagogika fanida ekologik tarbiyaning tarixiy transformatsiyasi bilan zamonaviy talqinlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda yangi pedagogik modellarning nazariy asoslari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, antropotsentrik yondashuvdan ekotsentrik yondashuvga o'tishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur maqolaning maqsadi ekologik tarbiya tushunchasining antik davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish orqali uning evolyutsion taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot doirasida ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati, uning barqaror rivojlanish g'oyalari bilan integratsiyasi hamda pedagogika fanidagi nazariy va amaliy ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Metodlar. Ushbu tadqiqot ekologik tarbiya tushunchasining tarixiy shakllanishi va zamonaviy pedagogik talqinlarini o'rganishga qaratilib, quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqot jarayonida Scopus, Web of Science, Google Scholar kabi xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining elektron resurslaridan foydalanildi. Adabiyotlarni tanlashda “ekologik tarbiya”, “ecological education”, “environmental pedagogy”, “barqaror rivojlanish ta'limi” kabi kalit so'zlar asos qilib olindi. Zamonaviy ilmiy maqolalar bilan bir qatorda ekologik pedagogikaga oid fundamental nazariy manbalar ham tahlil qilindi [4; 6].

Tarixiy-qiyosiy tahlil metodi. Ekologik tarbiyaning evolyutsion rivojlanish bosqichlarini aniqlash maqsadida antik davr falsafasi, Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari hamda G'arb klassik pedagogikasi namoyandalari inson va tabiat munosabatiga oid qarashlari qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Kontent-analiz metodi. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalar hamda xalqaro normativ hujjatlar, jumladan, YUNESKOning “Education for Sustainable Development” dasturi va barqaror rivojlanish tamoyillariga oid materiallar mazmunan tahlil qilindi. Ushbu metod ekologik tarbiyaning asosiy tarkibiy elementlari — ekologik bilim, ko'nikma, qadriyat va mas'uliyat tushunchalarining mazmunini aniqlash imkonini berdi.

Tizimlashtirish metodi. Tahlil natijalari asosida ekologik tarbiyaning zamonaviy pedagogik yondashuvlari antropotsentrik va ekotsentrik qarashlar asosida guruhlashtirildi hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari tizimli ravishda umumlashtirildi.

NATIJALAR

Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanish xronologiyasi. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiya tushunchasi insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllanganligini ko'rsatdi. Tahlillar asosida ekologik tarbiya dastlab tabiatga moslashish va uni muqaddaslashtirishga asoslangan diniy-axloqiy qarashlardan boshlab, zamonaviy davrda ekotsentrik va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan pedagogik konsepsiyagacha evolyutsion taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgani aniqlandi. Ushbu jarayonda inson va tabiat munosabatlariga oid qarashlar utilitar yondashuvdan ekologik mas'uliyat va ko'evolyutsiya tamoyillariga tomon rivojlangan.

1-jadval

Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanish bosqichlari

Davr / bosqich	Asosiy vakillar / manbalar	Pedagogik konsepsiya va yondashuv
Qadimgi davr (diniy-ekologik yondashuv)	“Avesto”, zardushtiylik ta'limoti	Tabiat unsurlarini muqaddas deb bilish hamda tabiatga ehtiyotkorona munosabatni axloqiy qadriyat sifatida shakllantirish.

Davr / bosqich	Asosiy vakillar / manbalar	Pedagogik konsepsiya va yondashuv
Antik davr (naturfalsafiy yondashuv)	Aristotle, Plato	Inson va tabiat yaxlitligini e'tirof etish, tabiatni kuzatish orqali olam qonuniyatlarini anglash g'oyasi.
Sharq Uyg'onish davri (gumanistik-ekologik yondashuv)	Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino	Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, atrof-muhit va inson salomatligi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash, tabiatga mas'uliyatli munosabatni targ'ib qilish. Tabiatga "omonat" sifatida qarash.
Yangi davr (tabiatga muvofiqlik tamoyili)	Jean-Jacques Rousseau, Johann Heinrich Pestalozzi	Tabiatga muvofiq tarbiya g'oyasi asosida bolaning tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash.
XIX–XX asr boshlari (antropotsentrik yondashuv)	Ernst Haeckel, Charles Darwin, Konstantin Ushinsky	Ekologiyani mustaqil fan sifatida shakllanishi hamda tabiatshunoslik fanlarining rivojlanishi.
XX asr o'rtalari (biosfera konsepsiyasi)	Vladimir Vernadsky	Biosfera va noosfera ta'limoti asosida inson faoliyati hamda tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asoslash.
XX asr oxiri – XXI asr (ekotsentrik yondashuv)	Barry Commoner, Nikita Moiseyev	Global ekologik mas'uliyat, tabiat bilan ko'evolyutsiya hamda Barqaror rivojlanish uchun ta'lim — Education for Sustainable Development (ESD) tamoyillarining shakllanishi.

Sharq mutafakkirlari va G'arb pedagoglari qarashlarining qiyosiy tahlili. Sharq xalqlari pedagogik tafakkuri tarixida tabiatga munosabat masalasi 'Avesto'dan boshlab insoniy komillikning mezoni sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik bu g'oyalar mutafakkirlar asarlarida ilmiy-falsafiy asoslandi. Tahlillar Sharq mutafakkirlari hamda G'arb pedagoglari qarashlarida inson va tabiat o'rtasidagi munosabat masalasi muhim o'rin egallaganligini ko'rsatdi. Xususan, Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida tabiatdagi muvozanat va tabiiy jarayonlarning uyg'unligiga alohida e'tibor qaratib, inson faoliyatining tabiat bilan bog'liqligini yoritgan [3]. Bu qarashlar ekologik tarbiyaning nazariy asoslari shakllanishiga xizmat qilgan.

Ibn Sino esa “Tib qonunlari” asarida havo, suv va tuproqning inson salomatligiga ta'sirini asoslab, ekologik omillarni sog'lom turmush va gigiyenik madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan.

G'arb pedagogikasida Jean-Jacques Rousseau insonning tabiatdan uzoqlashuvi uning ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, tabiatga muvofiq tarbiya g'oyasini ilgari surdi. Uning Emile, or On Education asari keyinchalik ekologik pedagogika rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi [7]. Johann Heinrich Pestalozzi esa tabiatni bevosita kuzatish va idrok etishni bolaning intellektual rivojlanishidagi muhim omil sifatida baholab, ko'rgazmali ta'lim metodikasini rivojlantirdi.

Zamonaviy pedagogik talqinlar. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogikada ekologik tarbiya quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida talqin qilinayotganligini ko'rsatdi:

1. **Ekotsentrik yondashuv** — insonni tabiatning hukmdori emas, balki uning ajralmas va teng

huquqli qismi sifatida talqin qilishga asoslanadi.

2. **Kognitiv-faoliyatli yondashuv** — ekologik bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutib, o'quvchilarning ekologik muammolarni hal etishdagi bevosita ishtirokini (eko-loyihalar, volontyorlik faoliyati va ekologik tashabbuslar) qo'llab-quvvatlaydi.

3. **Raqamli ekopedagogika** — zamonaviy axborot texnologiyalari, virtual laboratoriyalar va raqamli platformalar yordamida ekologik jarayonlarni o'rganish hamda ekologik tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv hisoblanadi [4; 6].

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari ekologik tarbiya tushunchasining mazmuni tarixiy taraqqiyot jarayonida sezilarli darajada kengayganligini ko'rsatdi. Dastlab tabiatni asrash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo'naltirilgan cheklangan yondashuv sifatida shakllangan mazkur tushuncha bugungi kunda ekologik madaniyat, ekologik ong va barqaror rivojlanish qadriyatlarini qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisaga aylangan. Ilmiy nuqtai nazardan ushbu transformatsiya antropotsentrik qarashlardan ekotsentrik yondashuvga o'tish jarayoni bilan izohlanadi.

Tahlillar Sharq mutafakkirlarining axloqiy-ekologik qarashlari hamda G'arb pedagogikasining ratsional va amaliy yo'naltirilgan modellarining uyg'unlashuvi zamonaviy ekopedagogikaning nazariy poydevorini shakllantirganligini ko'rsatdi. Xususan, Sharq tafakkurida tabiatga mas'uliyat va ma'naviy qadriyat sifatida yondashish ustuvor bo'lgan bo'lsa, G'arb pedagogikasida ekologik bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash tendensiyasi kuchli rivojlangan. Shu jihatdan ekologik tarbiya jarayonida qadriyatlarga yo'naltirilgan pedagogik metodlardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ekologik tarbiya masalalari mintaqaviy miqyosda ham keng o'rganilgan. Jumladan, G. N. Sapojnikov hamda M. P. Saidovlarning ilmiy ishlari boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirishning tarixiy, metodik va didaktik asoslarini yoritishga xizmat qilgan. Mazkur tadqiqotlar ekologik tarbiyani yosh avlodning ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi bilan integratsiyalash zarurligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy pedagogik talqinlarning amaliyotga tatbiq etilishidagi muammolar

Tadqiqot natijalari ekologik tarbiyaning zamonaviy pedagogik modellarini amaliyotga joriy etishda bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

1. **Metodik uzilish.** Ko'pgina hollarda ekologik tarbiya biologiya yoki geografiya fanlari doirasida cheklanib qolmoqda. Holbuki, zamonaviy pedagogik yondashuvlar ekologik tarbiyani barcha fanlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etishni talab etadi.

2. **Formal yondashuvning ustunligi.** Ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan ayrim ekologik tadbirlar amaliy ko'nikma va ekologik tafakkurni shakllantirishdan ko'ra ko'proq ko'rgazmali hamda qisqa muddatli aksiyalar shaklida namoyon bo'lmoqda.

3. **Texnokratik qarashlarning saqlanib qolishi.** Jamiyatda hamda ayrim ta'lim oluvchilar orasida iqtisodiy manfaatlarni ekologik manfaatlardan ustun qo'yishga asoslangan yondashuvlar hanuz ustunlik qilmoqda. Bu holat ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ekologik tarbiya evolyutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari. Tahlillar O'zbekiston ta'lim tizimida ekologik tarbiya evolyutsiyasi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida rivojlanayotganligini ko'rsatdi. Bu jarayon quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

- **Milliy qadriyatlar asosidagi ekologik tarbiya.** O'zbek xalqining “Suvga tupurma”, “Birni kessang, o'nni ek”, “Uvol bo'ladi” kabi maqol va udumlari xalqona ekologik tarbiyaning muhim unsurlari hisoblanadi. Shuningdek, mahalla tizimi orqali amalga oshiriladigan hashar va obodonlashtirish an'analari zamonaviy pedagogikada ijtimoiy-ekologik loyiha sifatida talqin qilinmoqda [8].

- **Umuminsoniy yondashuvning kuchayishi.** O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirishga oid konseptual hujjatlar United Nationsning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan [1; 5]. Bu esa milliy pedagogikani xalqaro standartlar bilan muvofiqlashtirishga hamda o'quvchilarda global ekologik mas'uliyatni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

XULOSA. Tadqiqot natijalari ekologik tarbiya tushunchasining tarixiy taraqqiyot jarayonida mazmun va mohiyat jihatidan sezilarli darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Aniqlanishicha, ekologik tarbiya insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyatning tabiatga bo'lgan munosabati bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy qarashlari hamda G'arb

pedagogikasining tabiatga muvofiqlik tamoyillari zamonaviy ekotsentrik yondashuvning nazariy asoslarini shakllantirgan.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, zamonaviy pedagogikada ekologik tarbiya nafaqat atrof-muhit haqidagi bilimlar tizimi, balki shaxsda ekologik ong, ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik jarayon hisoblanadi [10].

Shuningdek, ekologik tarbiya evolyutsiyasi antropotsentrik qarashlardan ekotsentrik yondashuvga o'tish tendensiyasini namoyon etdi. Mazkur yondashuv inson va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarni qaror toptirish hamda ekologik mas'uliyatni rivojlantirishda muhim pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari ekologik tarbiyani ta'lim tizimida fanlararo integratsiya asosida tashkil etish, qadriyatlarga yo'naltirilgan metodlarni keng qo'llash hamda raqamli ekopedagogika imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatdi.

Kelajakdagi pedagogik strategiyalar bo'yicha taklif va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida ekologik tarbiyani yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi pedagogik strategiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. **Fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish.** Ekologik tarbiya mazmunini nafaqat tabiiy fanlar, balki ijtimoiy-gumanitar hamda aniq fanlar o'quv dasturlariga ham tizimli ravishda integratsiyalash zarur. Jumladan, matematika darslarida resurslarni tejashga oid masalalardan, adabiyot fanida esa tabiat etikasi va ekologik qadriyatlarni tahlil qilishga qaratilgan metodlardan foydalanish samarali natija beradi.

2. **Raqamli ekopedagogikani rivojlantirish.** Ta'lim jarayoniga virtual borliq (VR) va to'ldirilgan borliq (AR) texnologiyalarini joriy etish ekologik jarayonlarni vizual tarzda o'rganish imkonini kengaytiradi. Bu esa o'quvchilarning ekologik tafakkuri va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. **Loyiha va faoliyatga yo'naltirilgan ta'limni kengaytirish.** Ekologik tarbiya jarayonida nazariy mashg'ulotlar bilan bir qatorda amaliy “yashil loyihalar”ni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, maktab bog'lari, chiqindilarni saralash tizimlari hamda ekologik tashabbuslarga asoslangan loyihalar o'quvchilarda ekologik mas'uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantiradi.

4. **Milliy va global qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash.** Ekologik ta'lim jarayonida xalq pedagogikasi va ajdodlarimizning tabiatni e'zozlashga oid an'analarini zamonaviy xalqaro ekologik standartlar bilan uyg'unlashtirish zarur. Bu yondashuv o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat bilan bir qatorda global ekologik mas'uliyatni ham rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. (2019). *O'zbekiston Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida* (Qaror №434). Toshkent.
Lex.uz
2. UNESCO. (2020). *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO Publishing.
UNESCO official website
3. Abu Rayhon Beruniy. (2022). *Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar*. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Helen Kopnina. (2020). Education for sustainable development (ESD): The turn away from “sustainable development” towards eco-pedagogy. *Journal of Cleaner Production*, 245, 118821. DOI reference
5. A. S. Nazarov. (2021). The role of spiritual and moral values in the formation of ecological culture of students. *Scientific Progress*, 2(1), 455–459.
6. N. M. Mamedov. (2022). Historical evolution of ecological education: From nature protection to sustainable development. *Environmental Education Research*, 28(4), 512–525.
7. Jean-Jacques Rousseau. (2018). *Emile, or On Education* (A. Bloom, Trans.). New York: Basic Books. (Original work published 1762).
8. Sh. Shodmetov. (2019). *Ijtimoiy ekologiya*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
9. Stephen Sterling. (2021). *Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change*. Schumacher Briefings.

10. Randy White, & Vicki L. Stoecklin. (2014). Nurturing children's biophilia: Developmentally appropriate environmental education for young children. *Early Childhood News*.
11. A. I. Rahimov. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'lim va tarbiya* (Dissertatsiya avtoreferati). Toshkent.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA , PSIXOLOGIYA VA METODIKA

Kurbanova Nasiba Usmonovna , The impact of artificial intelligence on the development of reading culture: A theoretical and empirical analysis	4
Mahmudova Zulfizar Eson Qizi , Maktabgacha ta'limda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	9
Sultonova Gulasal Shodmonovna , Xalq pedagogikasi vositalarining etno-estetik tarbiyadagi o'rni va ahamiyati	13
Azimova Dilnoza Orifovna , Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limning samarali jihatlari	22
Rajabova Gulchexra Salomovna, Muzaffarova Dilshoda Mehriddin qizi , Elektron kutubxona tushunchasi va uning axborot tizimidagi o'rni	23
Tosheva N.T, Muhammadova M.F , Zamonaviy ta'lim muhitida madaniyatlararo munosabatlar uyg'unligi va taraqqiyot tendensiyalari	26
Raxmatullayeva Feruzabonu, Akramova Maftunabonu , Musiqa ta'limida xor ijrochiligini tashkil etishning maktab sharoitiga moslashtirilgan amaliy tizimi	31
Рузиева Наргиза Омонжоновна , Педагогические идеи и реформы Мирзо Улугбека в эпоху Темуридов	36
Nazarova Aziza Sohib qizi , Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat bilan tanishtirishning zamonaviy metodlari	39
Maxmudova Ruxsora Navro'z qizi , Ekologik tarbiya tushunchasining evolyutsion rivojlanishi va zamonaviy pedagogik talqinlari	43
Nadirxanova Nilufar Alesherovna , Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	49
Umedov Shaxzod , Tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyadan foydalanish orqali talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	54
Omonov Qavmiddin Karimovich , Muhandislik grafikasini o'qitishda interaktiv usullardan foydalanish muammolari	57
Abdullayeva Dilrabo Baxtiyor qizi , Zo'ravonlikka duch kelgan o'smirlarning emotsional regulatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	63
Aslonova Emma Sergeyevna , Pedagog kadrlarning ekologik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	68
Barnoyeva Sevara Uchqun qizi , Bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida rivojlantirish: Ta'lim transformatsiyasi sharoitidagi muammo va yechimlar	73
Baxodirova Xalimabonu Baxodirovna , Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	78
Qo'ldoshev Mexriddin Avezmurodovich , Ahmad Donishning "Navodir-ul vaqoe" asarida tarbiya, ilm va inson kamoloti masalalari	83
Choriyeva Hilola Avaz qizi , Oila va maktab hamkorligida nutqida nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish mexanizmlari	87
D.I.Normatova , Maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni	94
Toshmatov Bobur Alisher o'g'li , O'smir yoshdagi o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari	98
Egamberdiyev Murod Farxod o'g'li , Xorijiy va milliy tajribalar asosida boshlang'ich sinf tasviriy san'at darslarida inkluziv ta'lim modelini shakllantirish	103
Egamova Gulnoza Istam qizi , Talabalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishning mavjud ahvoli va uni takomillashtirish yo'llari	111
Hakimova Nargiza Supxonovna, Qo'shshiyeva Dilnoza Sulaymon qizi , Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarni rivojlantirish usullari	117
Hojiqurbonova Sevinch Sanjar qizi , Nozmunchoqning tarixi va madaniy ahamiyati	123
Ibadullayeva Shaxnoza Ilxamovna , Zamonaviy tasviriy san'at ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	129